

TARIXIY TADQIQOTLAR OLIB BORISH UCHUN MANBALARNI TURKUMLASH

Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li

Buxoro viloyati Osiyo xalqaro universiteti Tarix fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15225672>

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali tarixning asosiy qismlaridan biri bo'lmish manbashunoslikda manbalarni turkumlashning asosiy turlari haqida fikr yuritiladi.

Tayanch so'zlar: Tarix, tabiiy-jug'rofiy manbalar, etnografik manbalar, moddiy manbalar, badiiy-tasviriy manbalar, yozma manbalar, tadqiqot, elektron hujjatlar, yorliqlar, vaqfnomalar, arizalar.

CATEGORIZING SOURCES FOR HISTORICAL RESEARCH

Abstract. This article discusses the main types of categorizing sources in source studies, which is one of the main parts of history.

Keywords: History, natural and geographical sources, ethnographic sources, material sources, artistic and visual sources, written sources, research, electronic documents, labels, foundation certificates, applications.

КАТЕГОРИЗАЦИЯ ИСТОЧНИКОВ ДЛЯ ИСТОРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация. В статье рассматриваются основные типы классификации источников в источниковедении — одном из основных разделов истории.

Ключевые слова: История, природные и географические источники, этнографические источники, вещественные источники, художественные и визуальные источники, письменные источники, исследования, электронные документы, этикетки, учредительные свидетельства, приложения.

Tarixning har bir davri uchun manbalarning aynan o'sha davr muhitiga xos turlarga tasniflash uslubini belgilash mumkin. Umuman olganda esa, manbalarni quyidagi 5 asosiy turga bo'lish ko'pchilik tomonidan qabul qilingan:

- tabiiy-jug'rofiy manbalar;
- etnografik manbalar;
- moddiy manbalar;
- badiiy-tasviriy manbalar;
- yozma manbalar.

Eng yangi (tarix) davr uchun manbalarning yana ikki turini alohida ajratib ko'rsatish qabul qilingan. U manbalarning fono, foto va kinohujjatlar guruhi hamda elektron hujjatlar guruhidir. Zikr etilgan manba turlarining yaxlit birlikdagi ko'rinishi yagona informatsion-kommunikativ maydonni tashkil qiladi.

Har bir hujjat, manba sifatida, ana shu maydondagi bir zarradan iboratdir. Quyida manbalarning zikr etilgan turlari mazmun-mohiyatining qisqacha tavsifi keltiriladi:

1. Tabiiy-jug'rofiy manbalar landshaftlar, ob-havo, tuproq, o'simlik va atrof-muhitning boshqa unsurlari haqidagi ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan. Bunday ma'lumotlar, bir jihatdan, u yoki bu hududning rivojida tabiiy muhitning o'rnini ko'rsatsa, ikkinchi tarafdin, insonning tabiatga o'tkazgan ta'siri oqibatlarini haqidagi ma'lumotlarni aks ettiradi. Demak, ular nafaqat insonning tabiatga ta'siri, balki tabiatning insonga ta'sirini ham ko'rsatib turadi. Misol uchun, inson atrof-muhitga qarab o'zining turargohi turini tanlaydi. U ochiq, yarim ochiq yoki mutlaqo yopiq bo'lishi mumkin. Uning shakli, eng avvalo, tegishli hududdagi ob-havo va tabiiy muhitga bog'liqdir. Bir daryoning o'zi ayrim hollarda faqat transport vositasi sifatida, boshqa paytlarda esa, bundan tashqari, yana energiya va oziq-ovqat manbayi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bundan u oqib o'tadigan hududlardagi rivojlanish jarayonlari bevosita ta'sirlanadi.

Aynan bir hududdan muayyan davrlarda ovchilik mintaqasi, boshqa paytlarda qishloq xo'jalik yerlari, keyinroq esa, foydali qazilmalar maydoni sifatida foydalanilgan bo'lishi mumkin. Inson ta'siri ostida ma'lum hududlardagi flora va fauna o'zgarib boradi, transport vositasi bo'lib xizmat qilayotgan daryolar kanallar tizimi bilan ta'minlanib borishi va buning natijasida yangi yerlar o'zlashtirilishi, ularda yangi shahar va qishloqlar barpo etilishi mumkin.

Ayrim hollarda hatto dengizlarning muayyan qismi, masalan, Yaponiya va Birlashgan Arab Amirliklaridagi kabi, quruq maydonlarga aylantirilishi kuzatiladi. Odamlar o'simliklarni yoqib yuboradilar, botqoqliklarni quritadilar, toshlardan foydalanib uy-joy quradilar, to'g'onlar, tegirmonlar, ko'priklar bino etadilar, kanallar va shaxtalar qaziydilar. Haddan ziyod chorva boqilgani yoki o'rmonlarning ayovsiz kesilishi hamda boshqa omillar flora va fauna o'rtasidagi uyg'unlikka putur yetkazadi. Bularning natijasida tegishli hududning landshafti mutlaqo o'zgarib ketadi.

2. Etnografik manbalar qadimiy texnologiyalar, urf-odatlar, fikrlash tarzi ko'rinishlari (stereotiplar), turarjoylar-ning turlari, liboslar, yeguliklar, folklor, zamonaviy tillarning qadimgi qatlamlarini o'zida mujassam etgandir. Bularning barchasi, umumlashtirilgan tarzda, "arxaika" degan ilmiy istiloh bilan ifodalanadi. Qoloq xalqlarga oid arxaikani o'rganish orqali bugungi peshqadam millatlar va jamiyatlar rivojining ilk bosqichlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirish mumkin. Ularning barhayot va muntazam rivojlanishdagi jamiyatlar sifatidagi o'ziga xosliklarini idrok etish imkoni paydo bo'ladi. 3. Moddiy manbalar arxeologiya yodgorliklari, binolar, mehnat qurollari, transport vositalari, uy buyumlari, qurol-yarog' va hokazolarni qamrab oladi. Moddiy manbalar tarixchiga tegishli davrlarda erishilgan ilmiy-texnik yutuqlarni ochib beradi. Ular qishloq xo'jaligi va sanoatda qo'llangan texnikaning rivojlanganlik darajasini ko'rsatib, tegishli davr madaniyati xususiyatlarini ochishga yordam beradi.

Tarixiy manbalar sifatida xizmat qiladigan arxeologik yodgorliklarning mazmuni va vazifasiga qarab quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: 1) turargohlar va alohida uylar; 2) qabrlar; 3) tog'-kon qazilma joylari va ustaxonalar; 4) ibodatgohlar; 5) g'orlar; 6) suv inshootlari (qadimiy sug'orish tizimlari, kanallar, to'g'onlar, vodoprovodlar, sug'orish qurilmalari); 7) qadimgi dehqonchilik maydonlari; 8) yo'llar; 9) istehkomlar (mudofaa xandaqlari, sun'iy tarzda barpo etilgan to'siqlar va h.k.); 10) petrogliflar (qoyalarga chizilgan rasmlar); 11) alohida topilmalar. Mazkur tasnifni arxeologik manbalarni guruhlashtirishga ham tatbiq etish mumkin.

4. Badiiy-tasviriy manbalar o'z davri xususiyatlarini badiiy obrazlarda ifodalagan me'moriy va tasviriy san'at yodgorliklari, haykaltaroshlik va amaliy san'atning boshqa turlari mahsulotlaridan iborat. Ular tegishli davr va xalqlarning yashash tarzi va odatlari haqidagi muhim manbalar hisoblanadi. Masalan, portretlar va haykallarda tarixiy shaxslar siymosi muhrlangan. Peyzajlar va muayyan janrda yozilgan tasviriy asarlarda, amaliy san'at predmetlarida aks etgan rasmlarda tarixiy jug'rofiya, turarjoylarning ko'rinishi, liboslar, turmush tarzi va boshqalar o'z aksini topgan bo'lib, ular tarixiy tadqiqotlar uchun muhim oziqa vazifasini o'taydi. Ayrim tasviriy san'at asarlari ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga oid muhim manba hisoblanadi. Misol uchun, fransuz rassomi O. Dom'e mo'yqalamiga mansub 5 mingta karikatura Fransiyaning 50 yillik tarixini o'zida ifoda etgani (Iyul monarxiyasidan Uchinchi Respublikagacha bo'lgan davr) bilan tarixda alohida shuhrat qozongan. O'rta asrlardan bizgacha yetib kelgan musulmon Sharqi qo'lyozmalaridagi miniatyuralarda ham, ayrim atoqli shaxslar siymosidan tashqari, muayyan tarixiy voqealar o'zining badiiy ifodasini topgandir. Shuning uchun ham ulardan tarixiy manbalar sifatida foydalanilmoqda.

5. Yozma manbalar harflar, raqamlar, notalar va yozuvning boshqa turlarida muhrlangan har qanday matn. Ularni asosan uchta yirik guruhga bo'lish inumkin:

- hujjat ko'rinishidagi manbalar (yorliqlar, vasiyatnomalar, vaqfnomalar, tilxatlar, garov xatlari va h.k.);
- qonunchilik manbalari (hukumat qarorlari, parlament aktlari, hukmdorlar farmonlari, o'zini o'zi boshqarish organlari qarorlari va h.k.);
- narrativ (bayoniy) manbalar - solnomalar, xronikalar, yozishmalar, tarjimai hollar, shajaralar, memuarlar va h.k.

6. Fono-foto-kinohujjatlar dagerrotiplar (fotosuratga olishning zamonaviy texnologiyasi ilk pallasiga xos tasvirlar), fotosuratlar, ovozli yozuvlar, hujjatli kinolentalar va hokazolar.

7. Elektron hujjatlar - bu elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va uni identifikatsiya qilishda foydalaniladigan elektron hujjatning boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan elektron shaklda qayd qilingan axborot. Elektron hujjatlar elektron texnik vositalar hamda axborot tizimi xizmatidan foydalangan holda yaratiladi, qayta ishlanadi va saqlanadi.

Sharqqa oid qo'lyozma hujjatlarning dunyodagi eng yirik markazlaridan biri Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti bo'lib, uning fondlarida 60 ming - qo'lyozma, 50 ming litografiya, 10 mingtacha XV-XX asrlarga mansub hujjat saqlanmoqda. Ularning aksariyat qismi arab, fors va turkiy tillardadir. Sharqshunoslik instituti fondlarida jamlangan asl nusxa hujjatlar mutaxassislar tomonidan olti guruhga bo'linadi: yorliqlar, vaqfnomalar, arizalar, cheklar, shajaralar va e'lonlar. Ularning ichidagi eng qadimiy vaqfnoma Ismoil Somoniy tomonidan avlodlariga vaqf qilib qoldirilgan Buxoro atrofidagi qishloqlar haqidagi hujjatdir. Bu va boshqa qadimiy vaqfnomalar IX-X asrlarda tuzilgan bo'lsa, ularning eng so'nggisi 1923-yilga mansubdir.

REFERENCES

1. Manbashunoslik. Mualliflar jamoasi. Darslik. – T.: Turon-Iqbol, 2019
2. Madraimov. A., Fuzailova. G. Manbashunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: Toshkent, 2008
3. Ahmedov. B. O'zbekiston tarixi manbalari (qadimgi zamon va o'rta asrlar). – T.: O'qituvchi, 2001
4. Muyiddinov, B. (2023). XII-XIII ASRLAR DAVRIDA BUXORODA ILM – FANNING RIVOJLANISHI. SCHOLAR, 1(28), 341–345. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10027071>
5. Muyiddinov Bekali. (2023). MO'G'ULLAR BOSQINI DAVRIDA BUXORONING AYANCHLI TAQDIRI. TADQIQOTLAR.UZ, 25(2), 212–215. Retrieved from <http://tadqiqotlar.uz/index.php/new/article/view/308>
6. Muyiddinov Bekali. (2023). THE ROLE OF BUKHARA AND OTHER CITIES IN THE MILITARY ART AND ARMY STRUCTURE OF KHOREZMSHAHS. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(3), 55–58. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/10035>
7. Muyiddinov, B. (2024). BARTHOLD'S "СОЧИНЕНИЯ. ТОМ I. ТУРКЕСТАН В ЭПОХУ МОНГОЛЬСКОГО НАШЕСТВИЯ" THE HISTORY OF THE CREATION OF THE WORK. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(1), 699–702. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10552555>
8. Muyiddinov, B. (2024). THE ROLE OF MILITARY REFORMS IN THE BUKHARA KHANATE IN THE LIFE OF THE STATE UNDER THE SHAYBANIDS. MODERN SCIENCE AND RESEARCH, 3(2), 646–648. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10668887>
9. MB Bahodir o'g'li. (2024). Military Art of Turkish Khaganate in the Early Middle Ages. European Journal of Innovation in Nonformal Education, 4(16), 223–227. <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2705/2586>

10. XORAZMSHOHIDLAR DAVLATI HAYOTIDA TURKON XOTUNNING O'RNI. (2024). MEDICINE, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY: THEORY AND PRACTICE, 2(4), 463-469. <https://universalpublishings.com/index.php/mpttp/article/view/5192>
11. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li. (2024). The coronation and campaigns of Alexander The Great. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(5), 400–412. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11222912>
12. Muyiddinov Bekali. (2024). COVERAGE OF LEGAL ISSUES IN "AVESTO". МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(6), 222–230. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12191420>
13. MUYIDDINOV BEKALI, & QORYOG'DIEV Z. (2022). ABOUT THE CONQUEST OF BUKHARA BY THE KHOREZMSHAHS. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(3), 158–161. Retrieved from <https://www.ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/383>
14. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li. (2024). History of State Institutions in the Kushan State, Which Founded Statehood on the Territory of Central Asia. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(9), 184–188. Retrieved from <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/4070>
15. Bahodir o'g'li, M. B. (2024). Avesto is an Ancient Written Monument Containing Information About the Life of the Peoples of Central Asia. *Miasto Przyszłości*, 53, 970–975. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4982>
16. Muyiddinov Bekali. (2024). SOMONIYLAR DAVLATIDA HARBIYLARGA BERILGAN E'TIBOR VA HARBIY SAN'AT. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14209121>
17. Muyiddinov Bekali. (2024). O'ZLIKNI NAMOYON QILISHDA XALQ DOSTONLARINING AMALIY AHAMIYATI VA KITOBIIY DOSTONLARNING O'ZIGA XOSLIGI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14528916>
18. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li, Muyiddinov Begali Bahodir o'g'li, & Boltayev Oxun Obid o'g'li. (2025). IBN SINONING FALSAFIY QARASHLARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14605977>
19. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li, Muyiddinov Begali Bahodir o'g'li, & Boltayev Oxun Obid o'g'li. (2025). YOSHLAR DUNYOQARASHI SHAKLLANISHIDA MILLIY TARBIYA VA TA'LIMNING AHAMIYATI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14606021>
20. Sadullayev Umidjon Shokir o'g'li, Muyiddinov Begali Bahodir o'g'li, & Boltayev Oxun Obid o'g'li. (2025). BUXORO AMIRLIGIDA 1900-1910-YILLARDAGI IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOT. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14606101>

21. Muyiddinov Bekali. (2025). ILK O'RTA ASRLARGA OID MUG' ARXIVINING TOPILISHI VA O'RGANILISHI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14680881>
22. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li, & Tursuntoshova Sabrina Toshpo'lat qizi. (2025). ABU RAYHON BERUNIY ILMIY MEROSIDA TARIX FANINING O'RNII. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14735052>
23. Gadayeva Mohigul Muxamedovna, Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna, & Muyiddinov Bekali. (2025). TARIX DARSLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14863055>
24. Muyiddinov Bekali, Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna, & Gadayeva Mohigul Muxamedovna. (2025). TEMURIYLAR DAVRIDA KUTUBXONACHILIK, HUJJATCHILIK VA ISH YURITISHNING O'ZIGA XOSLIGI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14863114>
25. Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna, Gadayeva Mohigul Muxamedovna, & Muyiddinov Bekali. (2025). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TARKIB TOPTIRISH MODELII. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14863169>
26. Muyiddinov Bekali. (2025). BUXORO AMIRLIGIDA DASTLABKI ARXIVLARNI SHAKLLANISHI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14902908>
27. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li, & Teshayeva Shahzoda Rahimovna. (2025, февраль 19). QADIMGI MISRDAN DARAK BERUVCHI TUTANXAMON - SIRLI FIR'AVN QABRINING TOPILISHI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14894992>
28. Muyiddinov Bekali. (2025). RESPUBLIKAMIZDA ARXIVLARNING SHAKLLANISHI VA TARMOQLI RAVISHDA KENGAYIB BORISHI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15023257>
29. Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li, & Teshayeva Shahzoda Rahim qizi. (2025). MIRZO ULUG'BEKNING "TARIXI ARBA-ULUS" ASARI O'RTA OSIYO TARIXINI O'RGANISHDAGI MUHIM MANBA. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15098265>
30. Yuldosheva Feruza Yashin qizi, Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li, & Xayrullayev Umid Fayzullo o'g'li. (2025, апрель 5). AMIR TEMUR VORISLARI: SIYOSIY, HARBIY VA MADANIY MEROSNING DAVOMIYLIGI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15160941>
31. Yuldosheva Feruza Yashin qizi, Muyiddinov Bekali Bahodir o'g'li, & Xayrullayev Umid Fayzullo o'g'li. (2025, апрель 5). JAHONDA KINO SAN'ATINING RIVOJI VA ARXIV HUJJATLARINING SHAKLLANISHI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15160951>

32. Xayrullayev Umidjon Fayzulo o'g'li, Muydinov Bekali Bahodir o'g'li, & Yuldosheva Feruza Yashin qizi. (2025, апрель 5). POLSHANING I JAHON URUSHIDAN KEYINGI AHVOLI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15160956>
33. Ярашова, М. . (2024). ЖАҲОН ЭТНОЛОГИЯСИ ФАНИ ВА УНИ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МЕТОДОЛОГИЯСИ. *Modern Science and Research*, 3(10), 362–368. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/44901>
34. Ярашова, М. (2024). БУХОРО ВОҲАСИДА МАТО ВА МАТО ТАЙЁРЛАШ УСУЛЛАРИ. *Modern Science and Research*, 3(11), 782–787. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48057>
35. Yarashova Mohlaroyim Shuhratovna. (2024). Muyiddin Ibn Arabiyning Tasavvuf Ta'limotida Tahsil Olgan Ayol Ustozlari Va Ta'lim Bergan Ayol Shogirdlari. *Miasto Przyszłości*, 52, 622–625. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4679>
36. Yarashova, M. (2024). ILK O'RTA ASR MANBALARIDA KIYIM-KECHAKLAR VA ULAR BILAN BOG'LIQ ATAMALAR TAVSIFI. *Modern Science and Research*, 3(12), 621–632. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58456>
37. Ярашова, М. (2025). ПАРАНЖИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ. *Modern Science and Research*, 4(1), 160–168. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60323>
38. Yarashova, M., Sa'dullayev, U., & Yo'ldosheva, F. (2025). BUXORO VOHASI AYOLLARINING AN'ANAVIY BOSH KIYIMLARI- DO'PPI VA RO'MOL. *Modern Science and Research*, 4(1), 600–607. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/64116>
39. Xayrullayev, U. (2024). THE IDEA THAT MADE THE OTTOMAN STATE GREAT (RED APPLE II). *Modern Science and Research*, 3(2), 1071–1073. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29533>
40. Xayrullayev, U. (2024). BRIEFLY ABOUT THE "RED APPLE" MYTHOLOGY OF THE TURKS. *Modern Science and Research*, 3(1), 568–572. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28329>
41. Umidjon, X. (2024). Literacy and Information Exchange in the Ancient East and West. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 179–183. Retrieved from <http://www.inovatus.es/index.php/ejine/article/view/2698>

42. Umidjon, X. (2023). 1918-1939-yillarda Polshaning ichki siyosatidagi o'zgarishlar. *Центр Научных Публикаций (buxdu.Uz)*, 42(42). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10963
43. Umidjon Xayrullayev. (2024). THE POSITION OF CENTRAL ASIAN GOVERNORSHIPS DURING THE PERIOD OF THE TURKISH KHANATE AND THE ARAB INVASION. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13958464>
44. Xayrullayev Umidjon Fayzullo o'g'li. (2024). LEGITIMACY OF RULERSHIP IN THE STATE OF CENTRAL ASIA AND IRAN IN ANCIENT TIMES AND THE EARLY MIDDLE AGES. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14222295>
45. Xayrullayev, U. (2024). EFTALLAR DAVLATI VA TURK XOQONLIGIDA HUKMDORLIK LEGITIMATSIYASI. *Modern Science and Research*, 3(12), 843–851. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58469>
46. Xayrullayev, U. (2024). TURK XOQONLIGI VA ARABLAR BOSQINI DAVRIDA O'RTA OSIYO HOKIMLIKLARINING MAVQEYI. *Modern Science and Research*, 3(12), 339–343. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58055>
47. Xayrullayev Umidjon. (2024). RELIGIOUS AND THREATS IN MEDIASPACE. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(5), 593–595. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11311154>
48. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlar tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.
49. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 129-132.
50. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. *Miasto Przyszłości*, 53, 956-959.
51. Haqqulov, M. (2024). O 'RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO 'LGAN "TURKISTON MUXTORIYATI". *Modern Science and Research*, 3(12), 609-613.
52. Haqqulov, M. (2025). USMONIYLAR IMPERIYASINING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 663-672.

53. Haqqulov, M. (2024). TURKISTON OZODLIGINING JARCHILARI. Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 2(11), 154-159.
54. Gulyamov, A. (2025). MANG 'ITLAR SULOLASI DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI, TUZUMI VA ICHKI SIYOSATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 790-798.
55. Gulyamov, A., & Xamidova, R. (2025). ABU RAYHON BERUNIY BUYUK QOMUSIY OLIM. *Modern Science and Research*, 4(2), 758-766.
56. Gulyamov, A. (2025). BUXORO AMIRLIGIDA ISTIQOMAT QILGAN MILLIY-ETNIK GURUHLAR. *Modern Science and Research*, 4(2), 1020-1028.
57. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 189-194.
58. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszłości*, 53, 964-969.
59. Gulyamov, A. (2024). BUXORO MUZEYNING TASHKIL TOPISHI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 659-667.
60. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi. (2024). SPIRITUAL AND EDUCATIONAL REFORMS ARE THE FOUNDATION OF A NEW UZBEKISTAN. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14503228>
61. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL EFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 850-854.
62. Rahmonova, S. (2023). YANGI O 'ZBEKISTONDA MA'NAVIY-MADANIY ISLOHOTLAR. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(10), 40.
63. Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA'NAVİYATLİ AVLOD-UCHİNCHİ RENESSANS BUNYODKORLARİ. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.
64. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.